

Axborot qurilmalari

Biz axborotlar bilan ishlay oladigan telefon, mediapleyer, televizor va fotoapparat kabi turli qurilmalardan foydalanamiz.



Men fotoapparat yordamida suratga olib, uni saqlay olaman.



Fotoapparat – axborotlarni grafik ko'rinishda saqlovchi qurilma.



Men telefon yordamida do'stlarim bilan gaplasha olaman.



Telefon – tovushli axborotlarni qabul qiladigan va uzata oladigan qurilma.





Men planshet yordamida musiqa tinglashim, rasm chizishim va chizgan rasmlarimni saqlashim, kitob o'qishim, multfilmlar tomosha qilishim mumkin.



Planshet – har qanday tovushli, grafik va yozuvli axborotlar bilan ishlay oladigan axborot qurilmasi.



Axborotlar bilan ishlay oladigan qurilmalar axborot qurilmalari deb ataladi.



1. Qanday axborot qurilmalaridan foydalanishingizni ayting. Ular qanday axborot bilan ishlaydi?



2. Savollarga javob bering.

- Axborot qurilmalari nima ekanligini eslang.
- Axborot qurilmalariga misollar keltiring.
- Ular qanday axborot turlari bilan ishlaydi?

